

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

6-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/6 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy

kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Норов Шухрат Сувонович

ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЫХ ЛЮДЕЙ
ПРИ УЧАСТИЕ МОЛОДЁЖНЫХ ОРГАНИЗАЦИИ 8-13

Jo'raqulov Boburmirzo, Masidikov Elyor

TUNKAT YODGORLIGIDAN TOPILGAN O'RTA ASRLAR OILAVIY HAMMOMI 14-19

Allaberganova Ro'zigul

MUSTAQILLIK YILLARIDA URGANCH SHAHRI QIYOFASINING O'ZGARISHI 20-23

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Dr. Abror Kucharov and Dr. Jyoti Meshram

INFRASTRUCTURE DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN:
A CATALYST FOR INDIAN INVESTMENT 24-38

Raximbayev Akmal Azatboyevich

HUDUDLARDA SANOAT AGLOMERATSIYALARINI SHAKLLANTIRISH
IMKONIYATLARI VA IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRINI BAHOLASH 39-46

Mamajonova Nodiraxon Alisher qizi

QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI
OSHIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI 47-57

Xasanova Dildora O'ktam qizi

QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIGA IXTISOSLASHGAN XO'JALIK VA KORXONALAR
FAOLIYATIDA ISHLAB CHIQRISH 58-71

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Абдусаммарова Сумора

ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА СОЦИУМ:
ФИЛОСОФСКО-ПРАВОВОЕ ОСМЫСЛЕНИЕ 72-78

Kubatov Shahobjon

UYG'UNLIK G'OYASI VA IJTIMOIIY DAVLAT HAQIDAGI TA'LIMOTLARNI
SINTEZ QILISH MASALALARI 79-88

Uralov Dilshodbek

ON HUMAN MORALITY AND PROFESSIONAL CULTURE
IN THE ETHICAL VIEWS OF IBN SINO 89-93

Tagaev Kamol

YANGI O'ZBEKISTONDA RAHBARLARNI SHAKLLANTIRISHDA
IJTIMOIIY LOYIHALARNING STRATEGIK AHAMIYATI 94-99

Xaydarova Zebiniso Nusratullayevna

EMPIRIZM, RATSIONALIZM VA KONSTRUKTIVIZM KABI TURLI EPISTEMOLOGIK
NAZARIYALARDA INSON MAVJUDLIGI MASALALARI 100-106

Mamadiyarova Malika

OILAVIY QADRIYATLARNING METODOLOGIK VA NAZARIY ASOSLARI 107-111

Xolova Umida Umedovna

MA'RIFAT VA MA'NAVIYAT UYG'UNLIGINING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI:
TARIXIY-FALSAFIY TAHLIL 112-118

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Baxramova Dilovarxon Gazanfarovna

O'ZBEK VA ISPAN TILLARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY
XUSUSIYATLARI..... 119-122

<i>Qozoqboyeva Dilfuzaxon Ilxomjon qizi</i> GENDER STEREOTYPES OF SPEECH OF UZBEK CHILDREN	123-128
<i>Pulatjonova Muxtasar</i> POLITENESS STRATEGIES IN ENGLISH AND UZBEK: A PRAGMATIC AND CROSS-CULTURAL COMPARISON	129-132
<i>Chernova Natalya Vasiliyevna</i> RUS BOLALARNING NUTIQA GENDERGA OID BELGILARNI SHAKLLANISHNING LINGVISTIK MEXANIZMLARI	133-136
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Komilov Avazbek</i> PROKURATURA ORGANLARI TOMONIDAN PROKUROR HUQUQIY VOSITALARINI QO'LLASH BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	137-146
<i>Rasulov Jurabek Abdusamiyevich</i> XALQARO HUQUQ INQIROZI: ZO'RIQISH OSTIDAGI TIZIM	147-152
<i>Nishonov Abdulloh</i> ATOM ENERGIYASIDAN FOYDALANISH JARAYONIDA OBYEKT LARNI JOYLASHTIRISHDA XALQARO EKOLOGIK NORMALARNING HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNING MILLIY QONUNCHILIKKA INTEGRATSIYASI.....	153-159
<i>Yusupdjanova Gulnoza Ilxomovna</i> JINOYAT PROTSESSIDA SUDNING FUNKSIYASI	160-167
<i>Tursoatov Sodik Xudoyor o'g'li</i> YUKSAK XIZMAT KO'RSATISH TUSHUNCHASI VA UNING O'ZBEKISTON QONUNCHILIGIDA IFODALANISHI MASALALARI.....	168-174
<i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o'g'li</i> MAHALLIY BUDJETNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING ILMIY-NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI	175-179
<i>Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ОБРАЗЦЫ ДЛЯ ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ: ПОНЯТИЕ И ПРАВОВАЯ СУЩНОСТЬ	180-193
<i>Узбекова Дильшода Тулкиновна</i> КЛАССИФИКАЦИЯ МЕР ПРОЦЕССУАЛЬНОГО ПРИНУЖДЕНИЯ	194-202
<i>Norboyev Bobur</i> LEGAL FRAMEWORKS FOR DIGITAL TECHNOLOGY APPLICATION IN LAND CADASTRE: INTERNATIONAL EXPERIENCES AND PRACTICES IN UZBEKISTAN	203-211
<i>Gafurova Shoirax Baxodirovna</i> XALQARO JINOYAT HUQUQIDA DALILLAR INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI	212-216
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Erkaboyev Oybek Muxammadjonovich</i> HARBIY XIZMATGA TAYYORGARLIK BOSQICHIDA O'QUVCHILARNING JISMONIY SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVLAR: JISMONIY TARBIYA VA CHAQIRUVGA QADAR TAYYORGARLIK ASOSIDA.....	217-221
<i>Kamalova Dilnavoz, Shomurodova Shahzoda</i> KINEMATIKADAN OLIMPIADA MASALALARI: KINEMATIK MASALALARDA YUQORI DARAJALI YECHIM YONDASHUVLARI	222-227

Received: 5 July 2025
Accepted: 20 July 2025
Published: 30 July 2025

Article / Original Paper

A MEDIEVAL FAMILY BATHHOUSE DISCOVERED AT THE TUNKAT SITE

Jo'raqulov Boburmirzo

PhD student at the National Center of Archaeology, Academy of Sciences

Masidikov Elyor

PhD researcher at the Almalyk Branch of Tashkent State Technical University

Abstract. This article examines a domestic bathhouse dating back to the medieval period, discovered at the Tunkat archaeological site. The structure, built with fired bricks and containing various ceramic artifacts such as pots and lamps, is believed to have served one or several families and dates to the 11th–12th centuries. Based on the architectural features and materials used, the study sheds light on the sanitary culture of the local population during the Qarakhanid period. The article also explores the historical significance of bathhouses in Islamic civilization, highlighting their role in daily life, hygiene, and urban development across Central Asia.

Keywords: Tunkat, medieval period, domestic bathhouse, archaeological excavation, fired bricks, ceramic vessels, 11th–12th century, sanitary culture, material culture, Islamic civilization.

TUNKAT YODGORLIGIDAN TOPILGAN O'RTA ASRLAR OILAVIY HAMMOMI

Jo'raqulov Boburmirzo Bahodir o'g'li

Fanlar Akademiyasi milliy arxeologiya markazi tayanch doktoranti

E-mail: boburmirzojoraqulov2@gmail.com

Masidikov Elyar Mirsodikovich

TDTU Olmalik filiali tayanch doktoranti

E-mail: masidikoveleyor@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'rta asrlarga oid Tunkat yodgorligidan topilgan oila uchun mo'ljallangan hammomning tuzilishi, arxitektura xususiyatlari va unda topilgan moddiy madaniyat yodgorliklari tahlil qilingan. Arxeologik qazishmalar natijasida aniqlangan hammom inshootining qurilish texnikasi, funksional vazifasi va ishlatilgan materiallari (pishiq g'isht, sopol idishlar, chiroq va boshqalar) asosida uning XI–XII asrlarga oid ekani aniqlangan. Tadqiqot davomida mazkur inshootning o'z davridagi sanitariya-madaniyat darajasini aks ettiruvchi noyob manba sifatidagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, maqolada hammomlarning islom sivilizatsiyasidagi o'rni, ularning shaharlardagi ijtimoiy va ma'naviy hayotdagi roli haqida tarixiy-qiyosiy tahlil berilgan.

Kalit so'zlar: Tunkat, o'rta asrlar, oila hammomi, arxeologik qazilmalar, pishiq g'isht, sopol idishlar, XI–XII asr, sanitariya madaniyati, moddiy madaniyat, islom sivilizatsiyasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI6Y2025N02>

Kirish.

Tunkat Ohangaron vodiysining qadimgi va o'rta asrlarda ma'dan ishlab chiqarish tarmoqlari yuksak darajada rivojlangan iqtisodiy-xo'jalik, sanoat markazi hisoblangan. Unda tog' sanoati, ya'ni qora va rangli metall xomashyosi ishlab chiqarish ayniqsa rivojlangan. Y.F. Buryakov yodgorlik hududi 180 gektar ekanligini ta'kidlagan [10]. Ushbu shahar xarobalarini Olmaliq va Angren shaharlarini bir-biri bilan bog'lovchi avtomobil yo'li janubiy va shimoliy qismlarga bo'lib turadi. Afsuski, uning shimoldagi 45 gektarga yaqin qismigina

saqlanib qolgan, xolos. Yodgorlik o'zni Obiz va Sarjayloq qishloqlari hududiga to'g'ri kelganligi uchun aholi tomonidan unga ayrim zarar yetkazilish holatlari bo'lganligini ko'rish mumkin. Shuningdek, ayrim hududlari fermer xo'jaliklari tomonidan o'zlashtirilgan. M.Y. Masson, Y.F. Buryakov kabi olimlar tomonidan ark (hokim qarorgohi) deb belgilangan yodgorlikning shimoli-g'arbiy qismi ham bugungi kunda butunlay yo'q qilib yuborilgan [9].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Tunkatning Angren va Olmaliq trassasidan janubdagi yerlari esa fermer xo'jaliklari tomonidan butunlay tekislanib, ekin maydonlariga aylantirib yuborilgan. Ushbu yerda Ohangaron tuman hokimligi tomonidan "Yashil makon" tashkil etilib, ko'plab teraklar ekilgan. Ulardan janubda yirik o'q ariq o'tkazilgan. Ariqdan g'arbiy ekin maydonlariga suv olib o'tilishi natijasida, yer ostidagi bo'shliqlarga suv sizib kirib, yirik cho'kmalar hosil bo'lgan. Bu haqda darhol mahalliy aholi tomonidan yodgorlikda arxeologik tadqiqotlar olib borayotgan Ohangaron arxeologik guruhi a'zolariga xabar berildi. Guruh tomonidan cho'kmalar tekshirilganda, ulardan birida pishiq g'ishtdan terilgan qurilma devorining bir qismi ko'rinib qolganligi aniqlandi. Qurilmani markazida 4X5 metr o'lchamda qazishma ishlari amalga oshirildi. Avval, maydonning ustki qismi o't va tikanlardan tozalandi. Yer sathidan 40 sm qazib tushilganda pishiq g'ishtli qurilmaning yuqori qismi ochila boshlandi. Uning ichini tuproqlardan tozalash jarayonida 2 dona sopol qozon, 1 dona chiroq va 1 ta sopol idishning tag qismi topildi. Ushbu qurilmani terishda ishlatilgan pishiq g'ishtlarning o'lchamlari 26X13X4 sm ni tashkil etadi. G'ishtlarning pastki qismi tekis, yuzasida esa barmoq izlaridan o'ziga xos belgi tushirilgan.

Pishiq g'ishtlardan terilgan qurilmaning o'lchami 1,10x1,10 metr bo'lib, kvadrat shaklda ekanligi aniqlandi. G'ishtlarning o'lchami 26X13X4 sm.ni tashkil etadi. Atrofda ham pishiq g'isht bo'laklari sochilib yotibdi. Qurilma tuzilishi, o'lchamlari, funksional maqsadiga ko'ra uyda ishlatiladigan kichik hammom bo'lib, bir yoki bir necha oilaga xizmat qilgan. S. Xmelinskiy bunday tuzilmalarni shaxsiy banyalar yoki uy hammomlari deb atagan [16].

Uning saqlangan balandligi 50 sm.ni tashkil etadi. Uning pol qismini qurush uchun yaxshi pishirilgan 28 ta, devorlarini tiklash uchun 140 ta butun va siniq g'ishtlardan foydalanilganligi ko'zga tashlanadi. G'ishtlarni terishda loy qorishmasidan foydalangan. Hammomning g'arbiy devori tag qismida 13X10 sm o'lchamdagi suv chiqib ketishi uchun teshik qoldirilgan. Ushbu hammomning janub tomonida katta chuqur o'zni bor. Chuqur ekin maydoni sug'orilganda suv sizib kirishi natijasida hosil bo'lgan, atrofiga g'isht urilmagan. Uning tuprog'ida kulga o'xshash aralashmalar bor.

Hammomning poliga terilgan g'ishtlar suv chiqib ketadigan teshikka tomon qiyalanib boradi. Pol yuzasiga oyoq toymasligi uchun barmoq izi tortilgan g'ishtlar terilgan.

Muhokama va natijalar.

Hammomni ochib o'rganish jarayonida bir dona sopol qozon, ko'za tagligi va chiroq aniqlandi:

Sopol qozonning og'zi ovalsimon ko'rinishda, diametri 27 sm. Labining tashqi to'rt tomoniga arra tishli naqshlangan ushlagichlar yopishtirilgan. Ular idish labidan 1,5 sm tashqariga bo'rtib chiqib turibdi. Qozonning loyi qizil rangda, sirtida kuygan izlar saqlangan. Uni tayyorlash jarayonida mayda tosh, qum aralash qorishmadan foydalanilgan. Qozonning saqlangan balandligi 13,5 sm.ni tashkil qiladi. Qozon devorining qalinligi 0,3 – 0,7 sm, lab qism devorining qalinligi 1,3 sm. Tag qismi butunlay sinib, yo'qolgan. Odatda bunday qozonlarning

tagi dumaloq shaklda bo'ladi. Ushbu tipdagi qozonlar Suyurlitepa [12], Tunkat [1], Farg'ona vodiysi yodgorliklaridan ko'plab topilgan bo'lib, Farg'onaning oshxona idishlarini o'rgangan I. Axrorov [6] tomonidan XI-XII asrlar bilan davrlashtirilgan.

Sopol idish tagligi. Ushbu idishning loyi qizg'ish rangda. Saqlangan balandligi 16,5 sm. Aynan ushbu nuqtada uning qorin diametri 27 sm.ni tashkil etadi. Tag qismi tekis, uning diametri 12 sm. Tag qismining qalinligi 0,4 sm. Qorin devorining qalinligi 0,5 – 1 sm.ni tashkil qiladi. Idishning o'lchamlaridan kelib chiqqan holda, uning ko'za ekanligini taxmin qilish mumkin. Undan yuvinish xonachasida suv solib foydalanilgan bo'lishi ehtimoldan holi emas.

Chiroq. Sopoldan tayyorlangan. Uning tagida yaltiroq kumush rang sirlar qisman saqlangan. Chiroqning bo'yi 4,3 sm. Tag qismining diametri 4 sm. Og'zining diametri 3 sm. Og'zi oldinga qarab cho'zilib chiqqan. Lekin ushbu qism sinib ketgan. Orqa tomonidagi tutqichi singan, lekin uning izlari saqlangan. Qorin diametri 7,3 sm.ni tashkil qiladi. Chiroq devorining qalinligi 0,5 sm.ni tashkil qiladi. Chiroqning bo'g'iz qismi (<<<<< >>>>>) mana bunday ko'rinishdagi naqshlar bilan bezatilgan. Ushbu bezaklar tagida chiroqning har ikki tomoniga 6 tadan 12 ta aylana naqshlar chizilgan. Aylanalar ichida gul yaproqlariga o'xshash 6 ta nuqtalar chizilgan. Ushbu chiroqdan o'z davrida yuvinish xonachasida tungi vaqtda foydalanilgan bo'lishi ehtimoldir.

Barchamizga ma'lumki, islom olamida hammom qurilishiga qadimdan katta e'tibor qaratilgan, bu oddiy kundalik hayotga, diniy, ijtimoiy va shaxsiy hayotga bog'liq jarayondir. Hammomlarning soni va sifati shaharning gullab-yashnashining o'lchovi bo'lib xizmat qilgan va o'rta asrlar mualliflarining tavsiflarida albatta qayd etilgan [5]. Sharqda hammomlar eramizdan oldingi V asrda Suriyada qurilgan bo'lib, Muhammad a.s. u hammomni ko'rgan va xalifalikning barcha hududlarida jamoatchilik maishiy muassasi sifatida qurilishiga tavsiya bergan degan fikrlar mavjud [13]. Musulmon Sharqidagi hammomlar Yevropa hammomlaridan farqli o'laroq, poklanish joyi, hordiq chiqarish va ma'naviyat markazi maskani sifatida faoliyat olib borgan. Hammomlar shaharning farovonligining o'lchami bo'lib, VIII asrda Markaziy Osiyoga kirib kelgan arablar bilan birga mamlakat madaniyati va ijtimoiy hayotining ajralmas tarkibiy qismiga aylangan.

Mana shunday oilaviy hammomlar A. Gritsina [2] tomonidan Xovosda ham o'rganilgan. Lekin ko'plab qazishmalarda oilaviy hammomlarga nisbatan jamoat hammomlari ko'p uchraydi. Markaziy Osiyoda jamoat hammomlarining qurilishi IX-XI asrlarda faollashdi. Mo'g'illarga qadar har bir shahar va qishloqda hammomlar mavjud bo'lib, ular masjidlaridan keyingi yeng ko'p tashrif buyuriladigan joylar sanalgan. Katta hammomlarning devorlari odatda bezatilgan yoki boshqa usullarda bezatilgan [2]. Masalan, Shoxjuvorda hammomlar rezina terrakota panellari bilan bezatilgan [14]. Afrosiyobdagi hammom ham rezina naqsh bilan bezatilgan [11]. Bolshakovning fikricha, Samarqand shahrida 60 – 80 ta hammom bo'lgan [7]. Afrosiyobdan janubi-g'arbda birinchi davr hammomi (X asr oxiri XI asr boshida) qazilgan [17]. Mo'g'illargacha bo'lgan davr hammomlari Markaziy Osiyoning turli mintaqalarida ochib o'rganilgan: Tarozi qal'asi [8] (XIII asr), Shoxjuvorda [14], Axsikentda [3] (X asr oxiri – XI asr boshi), Marg'ilonda [4], Toshkentda [15] va boshqa ko'plab joylardan topilgan.


Hammomlarning pishgan g'ishtlardan qurilganligi, yodgorlik hududlaridan ko'plab sopol quvurlarning, chuqur o'ralarning topilishi ajdodlarimiz qadim davrdan atrof muhitning tozaligiga, kanalizatsiya tarmoqlariga alohida e'tibor qaratganligini ko'rsatadi. Bu moddiy


manbalar tunkatliklarning ming yil oldingi yuvinish madaniyati haqida mana shunday muhim ma'lumotlarni taqdim etadi.

1-rasm.



2-rasm.



**3-rasm.**

Xulosa.

Ushbu hammom Tunkat yodgorligidan topilgan birinchi oilaviy hammom bo'lib, uning isitish tizimlari, qo'shimcha xonalari, suv yo'llari aniqlanmadi. Shunga qaramasdan Qoraxoniylar davriga oid oilaviy hammomlarning topilishi Tunkat aholisining yuqori darajada sanitariya qoidalariga e'tibor qaratishganligidan guvohlik beradi. Turon diyorida azaldan tozalikka, yuvinish joylari, hammomlarga aholining e'tibori yuqori bo'lgan. Buni Turonning yuragi bo'lgan O'zbekistonning turli joylarida uchratilayotgan moddiy manbalar ham isbotlab turibdi.

Adabiyotlar/Literatūra/References:

1. Асқаров А., Исабеков Б., Жўрақулов Б., Мамиров О., Исмоилов У. Ўзбекистонда археологик татқиқотлар. 2023 йил. – Самарқанд. 2024. № 16. – Б. 76-83.
2. Алексей Г, Рахимов К. Средневековая семейная баня на горадище кухна Хавас // ИМКУ. Вып. 41. Ташкент. 1992 – С. 198-206.
3. Анарбаев А. А., Ахраров И. А. Баня средневекового Ахсикента // ИМКУ. Вып. 25. Ташкент, 1991. -Б. 173-182
4. Анарбаев А. А., Максудов Ф. А. Древний Маргелан. (Из истории земледельческой и городской культуры Ферганы). Ташкент, 2007. -Б. 127-128
5. Ахмедов Б.А. Историко-географическая литература Средней Азии XVI-XVII вв. Силси- лат ас-салатин. Ташкент: изд. «ФАН» АН РУз. 1985.
6. Ахроров И. Кухонная керамика Ферганы XI-XII века // ИМКУ. – Ташкент. 1969. – Вып. 8. – С. 147.
7. Беленицкий А. М., Бентович И. Б., Большаков О. Г. Средневековый город Средней Азии. Л., 1973. Б. 309
8. Бернштам А. Н. Историко-археологические очерки Центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая // МИА. № 26. М-Л., 1952.
9. Буряков Ю.Ф. Археологические материалы по истории Тункета и Абрлига. В кн. "Материалы по истории Узбекистана" Ташкент, 1966, – С. 76-80.
10. Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. – Ташкент: Фан, 1982. – С. 35.
11. Гулямов Я. Г., Буряков Ю. Ф. Об археологических исследованиях на городище Афрасиаб в 1967 1968 гг. // Афрасиаб. Вып. I. Ташкент, 1969. - Б. 274.
12. Исабеков Б.И. Раскопки Храма на Суюрлитепа // Проблемы древней и средневековой истории Чача. Выпуск 2. (История. Археология. Нумизматика). Шамсиддин Камолиддин (ред.). Lambert Academic Publishing. – Saarbrücken, 2014. – С. 35-51.
13. Мамадиев Б. Б. Шаҳрисабзнинг қадимий ҳаммомлари // Та'лим va innovatsion tadqiqotlar (2023 йил № 9). – Б. 28-32.
14. Тихонин М. Р. Некоторые моменты из истории материальной культуры средневекового Шахджу_вара // ИМКУ. Вып. 14. Ташкент, 1990. -С. 201-202.
15. Филанович М. И., Алимов У. К обнаружению средневековой бани в Ташкенте // ИМКУ. Вып. 22. Ташкент, 1988. -Б. 176-190.
16. Хмельницкий С. Между Саманидами и монголами. Архитектура Средней Азии XI–XIII вв. Часть II. Берлин – Рига, 1997.
17. Шишкина Г. В. Городской квартал VIII-XI вв. на северо-западе Афрасиаба // Афрасиаб. Вып. II. Ташкент, 1973. Б. 124-130.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/6 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).